

JIZZAX VILOYATIDA TABIIY RESURLARNI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH CHORA-TADBIRLARI

Pozilov M.N.
Jizzax politexnika instituti professori
Karimova F.S.
Jizzax politexnika institutii katta o'qituvchisi
Ergasheva D.S.
Jizzax politexnika instituti talabasi
Salimov M.U.
Jizzax politexnika instituti talabasi

Jizzax politexnika instituti, O'zbekiston, Jizzax shahri

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishi davrida atrof-muhitni, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish eng dolzarb masaladir. Ushbu maqolada Jizzax viloyatida tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy resurslar, atrof-muhitni muhofaza qilish, yer va suv ob'yekti, yer osti suv konlari, tuproq va suv resurslari, daryolar, soylar.

МЕРЫ ПО ЗАЩИТЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ И ИХ РАЗУМНОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Позиллов М.Н.
Профессор Джизакского политехнического института
Каримова Ф.С.
Старший преподаватель Джизакского политехнического института
Эргашева Д.С.
Студентка Джизакского политехнического института
Салимов М.У.
Студент Джизакского политехнического института

Джизакский политехнический институт, Узбекистан, г. Джизак

Аннотация: В условиях современного экономического развития Республики Узбекистан охрана окружающей среды, природных ресурсов и их эффективное использование является наиболее актуальным вопросом. В данной статье описаны меры охраны природных ресурсов и их рационального использования в Джизакской области.

Ключевые слова: Природные ресурсы, охрана окружающей среды, земля и водные объекты, залежи подземных вод, почвенные и водные ресурсы, реки, ручьи.

MEASURES TO PROTECT NATURAL RESOURCES AND THEIR REASONABLE USE IN THE JIZZAKH REGION

Pozilov M.N.

Professor of the Jizzakh Polytechnic Institute

Karimova F.S.

Senior Lecturer at Jizzakh Polytechnic Institute

Ergasheva D.S.

Student of Jizzakh Polytechnic Institute

Salimov M.U.

Student of Jizzakh Polytechnic Institute

Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan, Djizak

Abstract: In the conditions of modern economic development of the Republic of Uzbekistan, the protection of the environment, natural resources and their efficient use is the most pressing issue. This article describes measures to protect natural resources and their rational use in the Jizzakh region.

Key words: Natural resources, environmental protection, land and water bodies, groundwater deposits, soil and water resources, rivers, streams.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishi davrida atrof-muhitni, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish eng dolzarb masala bo'lib qoldi. Chunki atmosfera va suv boyliklari to'g'ri saqlanmasa, tuproqning eroziyaga uchrashi va ifloslanishiga chek qo'yilmasa, o'simlik va hayvonot turlarini kamayib ketishining oldi olinmasa respublika iqtisodiyoti juda katta zarar ko'radi, kasalliklar ko'payib, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Oqibat natijasida o'lkamizni kelajak avlodga «Qashshoqlashgan» holda meros qilib qoldiramiz. Shuning uchun tabiatni asrash va muhofaza qilish tashviqot-targ'ibot ishlarini yanada ko'chaytirish uchun ro'znoma, oynoma va oynajahondan tashqari butun din peshvolari, ziyolilar, talaba va o'quvchilarni jalb etish zarur. Har bir korxona va tashkilot raxbari, shu jumladan fermer xo'jaliklarida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilar o'z yerlarini tabiiy sharoitini, tuproq va suv resurslarini holati to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishi va ishlab chiqarishda qaysi ekin ekilgan taqdirda atrof-muhitga, ayniqsa, yer va suv resurslariga zarar yetkazmasdan respublika iqtisodiyotiga foyda keltirishni bilishi zarur. Bunday ma'lumotlar kelgusida viloyat hududini tabiiy sharoitini, tuproq va suv resurslarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rayonlashtirishga asos bo'ladi. Bu esa har bir ishlab chiqarish ob'yekti uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarni hajmi, tannarxi, sotish

bahosi va iste'mol talabi inobatga olingan ko'rsatma biznes reja asosida faoliyat ko'rsatishga, hamda joylarda ekologik holatni yaxshilash imkonini beradi [1-5].

Jizzax viloyatida atrof-muhitni muhofaza qilish uchun qo'yidagi ilmiy-tadqiqot, qidiruv, qurilish va boshqa tashkiliy ishlarni bosqichma-bosqich bajarib borilishi maqsadga muvofiqdir.

1. Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tuzilgan bosh sxemasi asosida qo'yidagi ishlar bajarilishi lozim:

- viloyat suv resurslarni (daryolar, soylar, yer osti suv konlari) muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish, ifloslantiruvchi manbalarni aniqlash, har bir yer va suv ob'yekti uchun muhofaza mintaqasini sanitar-gidrogeologik tadqiqotlar bilan asoslash kabilarni o'z ichiga olgan mukammal umumlashgan tizimni ishlab chiqish;
- barcha tog' kon sanoati korxonalari, chorvachilik, parrandachilik, rekreatsion ob'yektlarni ekologik hujjatlarini (pasportini) tuzish va shu korxonalarda ekologik nazorat ishlarini olib borish;
- viloyat hududida paydo bo'lgan texnogen ob'yektlarni (suvlari sho'r, iflos sun'iy ko'llar, ishlab chiqarish korxonalar chiqindi va oqova suvlarini yig'uvchi omborlar va hokazolar), qishloq xo'jaligi uchun ma'dan o'g'itlar saqlangan omborlarni, zaharli chiqindilar ko'miladigan maxsus joylarni atrof-muhitga va tabiiy resurslarga ta'sirini baholash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- Haydarko'l-Tuzkon-Arnasoy texnogen ob'ektini mintaqaning suv, tuproq resurslariga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sirini baholash maqsadida keng ko'lamli kuzatuv va ilmiy-tadqiqot ishlari bajarish zarur. Bu ishlar kimyo, biologiya, zoologiya, botanika, gidrologiya, gidrogeologiya, gidrokimyo va gidromelioratsiya fanlar yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Bu kuzatuv va tadqiqot ishlarni xalqaro grantlar, xorijiy va respublika ishbilarmonlar xomiyligida bajarilishini yanada rivojlantirish;
- viloyatning o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun yangi xalqaro grantlar olish ishlarini kuchaytirish;
- viloyatning bir qator yer osti suv konlari hududi (Zomin, Ravot va boshqalar)ga maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maqomini (status) berish ishlarini bajarilishi lozim.

2. Jizzax viloyatida suv va yer resurslaridan foydalanishning bosh rejasi asosida qo'yidagi ishlarni bajarish lozim:

- viloyat suv resurslari deyarli to'la ishga solinganligi uchun sug'orishni suv tejaydigan ilg'or texnologiyasi va texnik vositalarini amaliyotga tatbiq etish;
- viloyat zovur-drenaj shaxobchasini ta'mirlash va tashlandiq qaytarma suvlarni ochiq suv xavzalari va kanallardagi suvlarga tushishiga yo'l qo'yimaslik;
- Haydarko'l-Tuzkon-Arnasoy texnogen ob'yektiga tushadigan zovur-drenaj zax suvlarni va tashlandiq qaytarma suvlarni miqdorini kamaytirishga erishish, suv sifatini tizimli nazorat qilib borish [6-8];

- yangi sug'orish texnikalari va sug'oriladigan maydonlarni kapital rejalashtirishni qo'llagan holda ko'pgina sug'oriladigan maydonlarda va sug'orish sistemalarida qayta qurish (rekonstruksiya) ishlarini amalga oshirish, ularni foydali ish koeffitsientini oshirishga erishish, drenaj ishlarini kuchaytirish kabi chora-tadbirlarini amalga oshirish.
3. Aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash uchun bajariladigan ishlar:
- viloyatning asosiy yer osti suv konlarida suvlarni sifati, sathi va boshqa xossalari o'rganish maqsadida maxsus kuzatuv va ilmiy izlanish ishlarini yo'lga quyish;
 - muhofaza zonasida aholini xo'jalik faoliyatini cheklash, barcha ifloslantiruvchi manbalarni bu zonadan chetga chiqarishga erishish;
 - viloyatning asosiy suv resurslari manbai Jizzax viloyatini o'rab turgan tog'lar bo'lgani uchun bu yerlarda kimyoviy, sanitar-ekologik va gidrogeologik tadqiqotlar o'tkazish;
 - barcha suv resurslarini ifloslantiruvchi manbalarida kuzatuv punktlarini tashkil etish;
 - Jizzax shahrida aholini sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash uchun Sangzor daryosining o'zanidagi suv olish inshootlarida magazinlashtirish usulini tadbiq etish va usulni samaradorligini yanada oshirish yo'llarini topish;
 - viloyat tumanlarida suv ta'minoti tarmoqlarida ichimlik suvlarni fizik-kimyoviy xossalari va sifatini o'rganishni va nazorat qilishni hozirgi zamon talabi darajasiga ko'tarish uchun zamonaviy ko'chma kimyoviy laboratoriyadan foydalanishga erishish.
4. Jizzax viloyati hududidagi suv resurslarini sifatini yaxshilash uchun quyidagi qurilish ishlarini bajarish uchun:
- oqova suv tozalash inshooti bo'lmagan tuman va qishloq markazlari uchun suv tozalash inshootlarini qurish;
 - viloyatning ichimlik suv bilan ta'minlash istiqboli past bo'lgan aholi punktlarida xorijiy grant mablag'lar hisobiga sho'r suvlarni chuchuklashtirish moslamasini qurish;
 - bir qator suv olish inshootlarida ta'mirlash ishlarini bajarish;
 - Jizzax va boshqa shaharlarda eski axlatga to'lib qolgan ariqlarni ko'mib tashlab, har tomonlama shahar obodonlashtirish rejasiga mos keladigan ariqlar (beton-lotok usulida, suvlarni yerga shimilishini kamaytirish maqsadida) tizimini loyihalash va qurish lozim.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan Jizzax viloyati yer va suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi muhofaza qilishga, aholini salomatligini yaxshilashga va iqtisodiyotni yanada rivojlanishiga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Pozilov M.N., Каримова Ф.С., Туйчиев Д.Э. Рациональное использование и охрана ресурсов пресных подземных вод Голодностепского региона // "Экономика и социум", Россия, 2024, №3(118)-1, стр. 799.

2. Pozilov M.N., Karimova F.S., Sarabekova M., Sunnatullayeva S. Mirzacho'l vohasida yer osti suv resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish\\Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2024, 3-1, 170 bet.

3. Pozilov M.N., Qurbanova L.M., Ibrohimova Z.I. Jizzax shaxri va uni atrofida suv resurslarini ifloslanishi\\"Ekonomika i sotsium", Rossiya, 2024, №6(121), str.121.

4. Pozilov M.N., Kurbanova D.S. Xaydarko'l-Tuzkan-Arnasoy texnogen ob'yekting yer osti suv resurslariga ta'sirini baholash\\Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2024, 6, 196 bet.

5. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С., Холмунинова Д. А. Нарушение естественных процессов активного водообмена голодноостепского региона и его воздействие на изменение рационального использования ресурсов подземных вод //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 2-1 (92). – С. 5-9.

6. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С. Формирование химического состава вод Айдаркуль-Тузкан-Арнасайского техногенного объекта //Высшая школа: научные исследования. – 2021. – С. 117-122.

7. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С., Жўраева У. Б. Қ. Жиззах вилоятида оқар сувлардан фойдаланишнинг истикболли йўллари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 482-488.

8. Каримова Ф. С. Структурно-гидрогеологический анализ формирования подземных вод Зааминского и Раватского месторождения Позиллов Мамажон Нарзикулович, доцент. – 2022.